



O‘ZBEK XALQ MAQOLLARIDA MILLIY QADRIYATLARNING LINGVOKULTUROLOGIK TAHLIL: OILA VA QARINDOSHLIK MUNOSABATLARI MISOLIDA

Jalg‘asbekova Madina Qaldibay qizi

Aniq va ijtimoiy fanlar universiteti o‘zbek
lingvistikasi yo‘nalishi 1-bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi maqollarning lingvokulturologik xususiyatlari tahlil qilingan. Zamonaviy antroposentrik lingvistikada maqollar millatning o‘ziga xosligini ochib berishda ulkan o‘rin tutishi va ularning aniq lingvokulturologik jamoaga xos xususiyatlarini o‘zida yorqin ifodalashi alohida qayd etilgan. Tahlil obyekti sifatida oila va qarindoshlikka oid maqollar misol keltirilgan.

Kalit so‘zlar: lingvomadaniyat, maqol, oilaviy mavzu, folklor, madaniy til.

KIRISH

Hozirgi kunda maqollar mavzusida qizg‘in izlanish va tadqiqotlar olib borilayotgan paytda, maqollarning har bir jihatlarini o‘rganish paremiologiya sohasining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Maqollarni qiyosiy tahlil jihatlarini o‘rganish mobaynida ularning lingvokulturologik jihatlariga to‘xtalmasdan bo‘lmaydi. Bu orqali tadqiqot olib borilayotgan tillarimizdagi maqollarning bir-biriga o‘xshash va farqli tomonlarini, shu til egasi bo‘lmish xalqning o‘ziga yarasha madaniyati va o‘ziga xos xarakterini ko‘rsatishga



harakat qilish lozim. Til har bir millatning madaniyatini, qadriyatlarini va e'tiqodini, xalqning o'ziga xos jihatlarini ifodalashda eng muhim omil hisoblanadi. Tilshunos olimlardan Nida biror xalqni tilini o'rganishda uning madaniyatini ham o'rganish muhim ekanligini aytadi. Uning ta'kidlashicha til va madaniyat bir-biriga bog'liq ravishda rivojlangan o'xshash tizimdir.

V. Teliya tilshunos va folklorshunos olim sifatida madaniyatni til bilan bog'liqligida paremiologiya sohasini rolini alohida ta'kidlaydi. Uning fikricha, til butun bir madaniyatni o'zida akslantiradi, shuningdek, paremiologiya sohasi ham tilning egasi bo'lgan xalqning madaniyatini juda o'zgacha va chuqur ifodalay oladi. Bunday holatni o'zaro til va madaniyatning qorishgan sohasi ya'ni lingvokulturologiya asoslab bera oladi. Shuning uchun, xalq madaniyatini ko'rsatishda maqollar eng faol vositalardan biri sifatida hozirgi kunda lingvistikada lingvokulturologik izlanishlar jarayonining asosiy mavzularidan biriga aylanmoqda. Ko'plab izlanishlarning asosiy obyekti sifatida tadqiqotlar olib borilmoqda. Teliya maqollarni "direct cultural signs" deb ataydi va bu orqali u maqollar butunlay xalqning madaniyatini ko'rsatuvchi omillar ekanligiga ishonadi. Har bir maqol, uning fikricha, xalqning turmush tarzini qisqa va lo'nda umuman to'laligicha ifodalay oladigan ko'zgudir.

ADABIYOTLAR TAHLILI

O'zbek lingvistikasida maqol, matal, turg'un birikma, ibora va hikmatli so'zlarning o'zaro munosabatiga bag'ishlangan ilmiy izlanish va tadqiqotlar ko'p. Ayniqsa, bahsli bo'lgan maqol va matal munosabatiga alohida tadqiqotchilar to'xtalib, ushbu ikki milliy fenomenning farqli va o'xshash jihatlariga turli jihatdan yondashib, turli xulosalarga kelishmoqdaki, ularning barcha maqol va matallarning umumiy konseptual jihatini aniqlashtirish hamda farqlarini umumlashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.



Maqollarning yondosh hodisalarga munosabatiga to'xtaladi va ularning farqlarini quyidagicha tasniflanadi :

1. Maqolda faktik ahamiyat katta bo'lsa, matalning informativ qimmati ustuvor bo'ladi: Bir tog'a yeti ota o'rniga o'tar

2. Maqol matalga nisbatan o'zgaruvchan va yuqori variantlikka ega, matal esa shaklan nisbiy turg'undir:

Yolg'izlikda yor yaxshi ,

Munglashganda – qarindosh . /

Yordami yo'q qarindoshga yalinguncha,

Qora qozoningga yalin . /

3. Ko'chma ma'noda qo'llangan maqollar : Boldiz boldan shirin

Omonulla Madayev “O'zbek xalq og'zaki ijodi” o'quv qo'llanmasida maqol va matalning farqiga to'xtalar ekan, “Matal, odatda, notiq nutqining tarkibiy qismini tashkil etadi, ammo mustaqil qo'llanganda tugal ma'no anglatmaydi. Bundan tashqari, agar biz nutqimizni go'zallashtirish maqsadida, dalillab maqolning bir qismini ishlatadigan bo'lsak, biz maqol emas, matal ishlatgan bo'lamiz. Maqol mataldan mustaqil ma'no ifodalay olish xususiyati bilan farqlanadi”, deyilgan.(1). Bizningcha ham maqol va matalni tugal ma'no anglatish va tarbiyaviy ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqqan holda farqlagan ma'qul. Maqollar majoziy, ko'chma ma'noga ega bo'lsa, matallar to'g'ri o'z ma'nosida qo'llaniladi. Bu fikrga ham to'liq qo'shilib bo'lmaydi, chunki maqol ham, matal ham ko'chma, majoziy ma'nolarga ega. Lekin olima maqolni shu jihati bilan idiomalashgan, matalni esa idiomalashmagan birlik sifatida baholaydi (2). Xalq maqollari va matallari chegarasini mutlaq qo'yib bo'lmasligini alohida ta'kidlaydigan tadqiqotchilar ham bor. Xususan, professor E.Qilichevning “O'zbek tilining praktik stilistikasi” o'quv qo'llanmasida matallar



va maqollar bir mavzu ostida berilgan. Olim yer sotgan er bo'lmaydi; pul belga quvvat, boshga toj; andishaning oti qo'rqq; Hamal kirdi – ekinlarga amal kirdi ifodalarini ham matal maqollar mavzusi ostida beradi (3)

MUHOKAMA

Tilshunoslikda maqollar frazeologik birliklar nomi bilan ham juda ko'p o'rganilgan. Frazeologik birliklarga – maqol, matal, hikmatli so'z va iboralar kiritilgan. B.Yo'ldashev frazeologiya obyekti tor doirada tushunilsa, “frazeologiyaning o'rganish doirasi aniqroq namoyon bo'ladi, undan haqli ravishda bo'linmas leksik birliklar, jumladan maqol, matal, hikmatli so'z va aforizmlar chiqib ketadi, chunki ular struktural jihatdan yaxlit holda qo'llanuvchi sintaktik

1[O.Madayev, 2010:77] ; 2[B.Jo'rayeva, 2006:24] ; 3[E.Qilichov, 1985:105].

birliklardir”, - degan fikrni aytgan (4). O'zbek maqollarining lingvokulturologik tahlili bo'yicha juda ko'p maqolalar yozilgan. Durdona Xudayberganovanning “Lingvokulturologiyada madaniy kod tushunchasi va talqini” va Z.Muqimova bilan hamkorlikda yozilgan “Lingvomadaniy kodlar va o'zbek xalq maqollari” ilmiy maqolalari shular jumlasidan hisoblanadi. O'zbek xalq maqollari misolida lingvomadaniy kodlarni tasniflagan. O'zbek xalqining obrazli tafakkuri va dunyoqarashi, turmush tarzi, qadriyatlari, fe'l-atvori, e'tiqod va an'analari maqollarda ifodalangan lingvomadaniy kodlarda ham yaqqol ko'zga tashlanadi va o'z ifodasini topadi. Hatto maqollardagi mavzular o'xshash bo'lsa-da, ulardagi obrazlar takrorlanmasligi bilan ajralib turadi. Aynan ana shu tasvir maqollardagi milliy-madaniy bo'yoqni ta'minlaydi (5)

XULOSA

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, o'zbek maqollarining lingvomodaniy tahlilida asosiy jihat maqollarning milliy mintalitetini ko'rsatib berishi hisoblanadi. Mavzu doirasiga va



ma'nosi bir-biriga yaqinligiga qarab farqlanishi ushbu mavzu doirasida ko'p ilmiy tadqiqot ishlari olib borishga jalb etadi. Lingvokulturologiya bo'limi tarkibida o'rganiladigan birliklar xalqlarning madaniyati hamda yashash tarzidan darak beruvchi tushunchalar sanaladi. Bunday leksemalar ortidagi ma'no qirralarni anglash orqali xalqlar hayotidan muhim o'rin egallagan voqeliklardan ham xabardor bo'lish mumkin. Buni bilish orqali bizga ma'lum yoki noma'lum bo'lgan tushunchalar haqida bilimga ega bo'lishimiz .

4 [B.Yo'ldashev, 2011:114] ; 5[D.Xudayberdiyeva, Z.Muqimova, 2021/№4.20-23].

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Ўзбек халқ мақоллари. / Тузувчилар: Мирзаев Т., Мусоқулов А., Саримсоқов Б.; Масъул муҳаррир: Турдимов Ш. – Тошкент: Шарқ, 2003.– 512 б.
2. Yuldasheva O. O'zbek tilida urf-odat asosida shakllangan maqollar // ЎЗМУ хабарлари. – Toshkent. 2022, [1/9/1]. – В.305-307.
3. Худайберганова Д., Муқимова З. Лингвомаданий кодлар назарияси ва ўзбек халқ мақоллари // О'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent. 2021/№ 4.20-23 б.
4. Худайберганова Д. Лингвокултурологияда маданий код тушунчаси ва талқини // О'zbek tili va adabiyoti. – Toshkent. № 3 (2019). -В. 15-16 б.
5. Sh. Usmanova Lingvokulturologiya T.: 2019